

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**YIGITALIYEVA SHOHSANAM ISAG‘ALI QIZI**

**O‘ZBEK TILIDA “YAXSHILIK” KONSEPTINING VOQELANISHI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qo‘qon-2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of philosophy (PhD)  
in philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Yigitaliyeva Shohsanamxon Isag‘ali qizi**

O‘zbek tilida “yaxshilik” konseptining voqelanishi.....3

**Yigitaliyeva Shohsanamkhon Isagali kizi**

The concept of “goodness” in uzbek linguistic realization.....25

**Йигиталиева Шохсанамхон Исагали кизи**

Реализация концепта «доброта» в узбекском языке.....47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

List of published works

Список опубликованных работ.....51

**Поvalar**

Appendixes

Приложения.....53

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**YIGITALIYEVA SHOHSANAM ISAG‘ALI QIZI**

**O‘ZBEK TILIDA “YAXSHILIK” KONSEPTINING VOQELANISHI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qo‘qon – 2024**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fil1924 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo'qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Qo'qon davlat pedagogika institutining veb-sayti [www.kspi.uz](http://www.kspi.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umarova Nargiza Rustamovna  
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xudoyberganova Durdona Sidikovna  
filologiya fanlari doktori, professor

Azimov Inomjon Mamasodikovich  
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat univesiteti

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon davlat pedagogika institutida huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil « 14 » dekabr soat 8:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel.: (373) 542-11-43; e-mail: [kspi\\_info@edu.uz](mailto:kspi_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qo'qon davlat pedagogika institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (33 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel.: (373) 542-11-43; e-mail: [kspi\\_info@edu.uz](mailto:kspi_info@edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « 4 » dekabr kuni tarqatildi.

(2024-yil « 4 » dekabr dagi 23 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.X. M.X.Hakimov  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

A.X. A.X.To'raxojayeva  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

D.M.J. D.M.Jamoliddinova  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida XX asr soʻngida boshqa fanlar qatori axborot tizimiga kognitiv yoʻnaltirilgan zamonaviy talqindagi inson ongining lingvistik tadqiqiga eʼtibor qaratila boshlandi, chunki tilga murojaat qilish inson ongiga kirishning eng oson usuli hisoblanadi va u bizga muayyan etnik guruhga xos konseptual olam manzarasini toʻliq tavsiflash imkonini beradi. Maʼlumki, til faoliyati bilishning oʻziga xos usullaridan biri sifatida insonning kognitiv qobiliyatlariga asoslanadi. Til vositasida uzatiluvchi va qabul qilinuvchi axborot insonga turli kanallar orqali keladi va olam haqidagi barcha bilimlar inson miyasida maʼlum konseptual tuzilmalar shaklida toʻplanadi. Xususan, yaxshilik haqidagi tasavvurlarning lingvomadaniy ifodasi boʻlgan assotsiativlar va konseptual modellar til jamoasining lisoniy hamda qadriyat olam manzaralari asosida shakllanadi. Bunda har bir kognitiv tuzilmani til amaliyoti orqali tadqiq etish milliy-madaniy ongda aks etuvchi konseptual hajmdagi tasavvur va bilimlar zaxirasini aniqlashda amaliy jihatdan kutilgan samarani beradi.

Dunyo tilshunosligida muayyan konsept va uning konseptual tuzilmalari doirasidagi til birliklarini oʻrganish masalasi dolzarb muammolardan sanaladi, chunki konseptlar asosida tilda, xususan, milliy tilda soʻzlashuvchilar lisoniy ongida aks etuvchi olam manzarasining aqliy modellarini yaratish mumkin. Bugungi kunda kognitiv yondashuvda aynan “konsept” tadqiqiga keng oʻrin berilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tilda “yaxshilik” konseptining aqliy tuzilmalarini assosiativ va ijtimoiy soʻrovnomalar natijalari asosida tavsiflash, bu tushuncha doirasidagi milliy tasavvurlarni aniqlash va tahlil qilish, konsept yadrosini va periferik birliklarini belgilash, mazkur semantik tuzilma asosida yaratilgan paremik birliklar hamda badiiy matnlarni modellashtirish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Zero, konseptlarni tilda ifodalashning tizimli vositalarini aniqlash nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Oʻzbek tilshunosligida ham soʻnggi yillarda lingvokognitologiyaning tayanch tushunchasi boʻlgan konsept tadqiqiga alohida eʼtibor qaratila boshlandi va bu yoʻnalishda koʻplab tadqiqotlar maydonga keldi. Shunday boʻlsa-da, kognitiv tilshunoslikda konseptlar doirasidagi izlanishlar sohadagi barcha muammolarni toʻliq qamrab olgan emas. “Bugungi globallashtirish davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat oʻz milliy manfaatlarini taʼminlash, bu borada, avvalo, oʻz madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat qaratishi tabiiydir”<sup>1</sup>. Barcha tillarda “yaxshilik” konsepti muhim milliy-madaniy konseptlar doirasiga kiradi va uning tadqiqi til ilmida izchil amalga oshirilib kelinmoqda. Chunki dunyo mohiyati va hayot falsafasining tayanch tushunchasi boʻlgan “yaxshilik” va uning milliy talqini til jamoasining koʻp asrlik tajribalari asosida rang-barang konseptual tuzilmalarda namoyon boʻladi. Oʻzbek xalqi azaldan yaxshilikni eng muhim milliy qadriyat darajasiga koʻtargan, ajdodlarimiz yaxshilikni har doim ulugʻlaganlar. Mamlakatimizda yaxshilik negizida olib borilayotgan inson manfaatlarini va qadr-qimmatini ulugʻlash borasidagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar ham mazkur konsept tadqiqi ahamiyatini bir pogʻona yuqoriga koʻtaradi.

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5850-sonli Farmoni. Manba: <http://lex.uz/docs/4561730>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila va ayollar bilan ishlash tizimini yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davrida ta’lim, tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari, 2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishida innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida konseptlar bir necha yondashuvlar asosida tadqiq etib kelinadi, jumladan, kognitiv tilshunoslik konseptlarni inson aqliy jarayonlari bilan bog‘liq holda<sup>2</sup>, semantik tilshunoslik til birliklarining ma’no tarkibi sifatida<sup>3</sup>, struktural tilshunoslik til tizimining tarkibiy qismi sifatida, lingvokulturologiya esa madaniy qadriyatlar va dunyoqarashlar bilan bog‘liq holda<sup>4</sup> o‘rganadi. Har bir yondashuv konseptlarni o‘ziga xos tarzda talqin qiladi va ularning turli jihatlarini ochib beradi, bu esa til va madaniyatning murakkab munosabati hamda o‘zaro ta’sirini, konseptual tuzilmalarning naqadar boyligini ko‘rsatadi.

Rus tilshunosligida “konsept” tushunchasi keng miqyosda tadqiq etilgan, xususan, Y.Stepanov<sup>5</sup> konseptlarning madaniy kodlar va belgilar tizimi sifatida ishlashini, A.Zalyagin<sup>6</sup> ularning madaniy hamda tarixiy rivojlanishini, A.Zaliznyak<sup>7</sup> kognitiv va madaniy jihatlarini, S.Askoldov<sup>8</sup> konsept va so‘zning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning til

---

<sup>2</sup> Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar, vol. 1: Theoretical Prerequisites. – Stanford: Stanford University Press 1987; Langacker R.W. Concept, Image, Symbol // The Cognitive Basis of Grammar. – Berlin-New York: Mouton de Gruyter 1991; Langacker R.W. Cognitive Grammar // A Basic Introduction. – Oxford-New York: Oxford University Press, 2008.

<sup>3</sup> Wierzbicka A. Different Cultures, Different Languages, Different Speech Acts: Polish vs. English // Journal of Pragmatics 9 (2-3): 145-78. doi:10.1016/0378-2166 (85) 90023-2. – 1995.

<sup>4</sup> Ivanov V.V. Language and Culture // Language and Culture: Linguistic Studies. – M., 1990. – C.83-87; Ivanov V.V. Linguistic and Cultural Contexts in Communication // Semiotics and Communication Studies. – New York, 1995. – P. 27-31.

<sup>5</sup> Степанов Ю.С. Словарь русской культуры. – М.: Языки русской культуры, 1997. – 360 с.

<sup>6</sup> Залыгин А. Концептуальный мир русского народа. – М.: Русская речь, 2001. –107 с.

<sup>7</sup> Зализняк А. Каталог семантических сдвигов: 20 лет спустя // Язык и культура: когнитивные аспекты. – М., 2018. –Том 22. – № 4. – С.770-787.

<sup>8</sup> Аскольдов С. Концепт и слово. – М.: Русская речь, 1928. – 416 с.

tizimidagi o‘rnini, I.Zayseva<sup>9</sup> konseptlarning leksik-semantik xususiyatlari va madaniy konnotatsiyalarini o‘rgangan.

O‘zbek tili konseptosferasi tadqiqi doirasida diaxron aspektida N.R.Umarovanning Alisher Navoiy asarlarining lisoniy-konseptual tadqiqiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasini, A.I.Ziyayevning go‘zallik/xunuklik va xursandchilik/qayg‘u binar oppozitsiyalari doirasidagi, Z.Ma‘rupovanning mumtoz badiiy matnlarda “go‘zallik”, qiyosiy aspektida A.K.Xalillayevning ispan va o‘zbek tillarida “mardlik”, Z.O.Aminovanning ingliz va o‘zbek tillarida “yurak”, G.A.Usenovanning ingliz va qoraqalpoq tillarida “ona”, M.M.Raxmatovanning ingliz, o‘zbek va tojik tillarida “go‘zallik”, Sh.X.Djabbarovning ingliz va o‘zbek tillarida “vaqt”, til nazariyasi ixtisosligida M.Bahramovanning “ayol” konsepti va uning verbalizatorlari, O.Bektoshevning konseptual axborot faollashuvida “kuch” elementli til birliklari, U.Yigitaliyevning o‘zbek tilida “odam” va “jins” konseptlari bilan bog‘liq assotsiativ-verbal birliklar, D.Buzrukovanning olam hissiy-lisoniy manzarasida “muhabbat” konseptining lingvokulturologik va gender tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlari<sup>10</sup>ni keltirish mumkin.

Tilning konseptual sohasida “yaxshilik” universal konseptlardan sanaladi. “Yaxshilik” va “ezgulik” tushunchalariga jahon tilshunosligida atroflicha e‘tibor qaratilgan. Masalan, G.Lakoff va M.Johnson “Metaphors We Live By”<sup>11</sup> asarida kognitiv lingvistika hamda metafora nazariyasi orqali “yaxshilik” va “ezgulik” konseptlarini, shuningdek, metaforalarning inson ongida konseptlarni qanday shakllantirishi va uning tilda qanday ifodalanishini, A.Wierzbicka “Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese”<sup>12</sup> nomli tadqiqotida madaniy konseptlarga antropotsentrik yondashuv orqali universal-semantik modellar asosida “yaxshilik” va “ezgulik” tushunchalarini, Y.Stepanov rus madaniyatidagi “yaxshilik” va “ezgulik” konseptlarini tahlil qilish asnosida madaniy kodlar tizimini, V.G.Raymond “The

---

<sup>9</sup> Зайцева И. Концептуальный анализ в современной русской лингвистике. – М.: КНОРУС, 2003. – 217 с.

<sup>10</sup> Умарова Н.Р. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дис. – Фарғона, 2021. – 269 б.; Зияев А.И. Инглиз тилида сўз маъноларини кучайтиришнинг лингвокогнитив аспекти: Филол. фан. номз. ... дис.автореф. – Самарқанд, 2009. – 22 б.; Маърупова З. Мумтоз бадий матнларда “гўзаллик” концептининг вербаллашуви: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дис. автореф. – Фарғона, 2022. – 24 б.; Халиллаев А.К. Испан ва ўзбек тилларида “hombria/мardлик” концепти қўлланишининг лингвокогнитив ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент, 2022. – 48 б.; Аминова З.О. Инглиз ва ўзбек тилларида “heart/юрak” концептининг вербаллашуви ва лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дис. автореф. – Қарши, 2022. – 56 б.; Усенова Г.А. Mother/ona концепти идентификаторларининг лингвомаданий хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида): Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дис. автореф. – Нукус, 2021. – 49 б.; Рахматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дис. автореф. – Бухоро, 2019. – 50 б.; Джаббаров Ш.Х. Вақт концептосферасининг когнитив-метафорик, лингвофалсафий ва лингвомаданий таҳлили (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дис. автореф. – Термиз, 2022. – 53 б.; Bahramova M. “Ayol” konseptosferasining verbalizatorlari va kognitiv tahlili: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дис. автореф. – Farg‘ona, 2023. – 61 б.; Bektoshev O. konseptual axborotning faollashuvida “kuch” elementli til birliklarining voqelanishi: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дис. автореф. – Farg‘ona, 2020. – 62 б.; U.Yigitaliyevning o‘zbek tilida “odam” va “jins” konseptlari bilan bog‘liq assotsiativ-verbal birliklar: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дис. автореф. – Toshkent, 2020. – 59 б.; Buzrukova D. Olamning hissiy-lisoniy manzarasida “muhabbat” kontseptining lingvokulturologik va gender tahlili: Филол. фан. б. ф. д-ри ... дис. автореф. – Farg‘ona, 2024. – 62 б.

<sup>11</sup> Johnson M., Lakoff G. Metaphors We Live By. – Chicago, London: University of Chicago Press, 2003. – 276 p.

<sup>12</sup> Wierzbicka A. Understanding Cultures Though Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – Oxford-New York: Oxford University Press, 1997. – 317 p.

Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding”<sup>13</sup> asarida metaforik hamda figural fikrlashning til va ongda qanday ifodalanishi doirasida “yaxshilik” va “ezgulik” konseptlarini tadqiq etgan.

Yuqorida qayd etilganidek, jahon tilshunosligida “yaxshilik” konsepti alohida yoki dualistik – juftlik ko‘rinishida qiyosiy, lingvokulturologik, leksikografik aspektda o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, uning o‘zbek tilida voqelanishiga xos kognitiv xususiyatlar, shuningdek, konseptning lug‘aviy, badiiy, milliy-madaniy va ijtimoiy tabiati tizimli o‘rganilgan emas. Mazkur tadqiqot ishimiz ana shu jihatlari bilan dolzarblik kasb etadi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘zbek tilida voqelangan “yaxshilik” konseptining markaz va qurshov birliklarini, ularning semantik sohalarini hamda ma’nolar dinamikasini aniqlash, milliy ongdagi konseptual tuzilmalarini tavsiflash, kognitiv jihatdan modellashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o‘zbek tilida o‘rganilayotgan konseptning kognitiv tuzilmalari va ularni ifodalovchi til birliklarini aniqlash orqali “yaxshilik” kognitiv konteksti(freymi)ni shakllantirish;

“yaxshilik” konseptining tilda voqelanish tizimini yoritish, uning tarkibiy qismlari va maydon tuzilmalarini tavsiflash;

konsept doirasidagi paremik birliklarni lingvokognitiv jihatdan konseptual-metaforik va konseptual-metonimik asosda modellashtirish;

badiiy matnda muallifning olam manzarasi sifatida namoyon bo‘luvchi “yaxshilik” konseptini kognitiv jihatdan modellashtirish;

milliy til sohiblarining turli yosh guruhlari jamoaviy ongidagi “yaxshilik” konsepti assotsiativ maydonini aniqlash, uni tashkil etuvchi markaziy va chegara birliklari mohiyatini yoritish.

**Tadqiqot obyekti.** O‘zbek tilida “yaxshilik” konseptining til jamoasi ongida va ijodkor badiiy tafakkurida voqelanishi.

**Tadqiqot predmetini** o‘zbek tilida “yaxshilik” konseptual maydonini tashkil etuvchi yadro (markaz) va periferik (chegara) birliklar, konseptual tuzilmalar hamda ularning semantikasi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, funksional-semantik, assotsiativ va konseptual tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslariga tayangan holda olib chiqilayotgan muammo tavsiflangan, o‘zbek tilida “yaxshilik” konseptining konseptual tuzilmalari va ularni tilda namoyon etuvchi birliklar aniqlangan hamda ushbu ifodalovchilar asosida konseptning kognitiv konteksti shakllantirilgan;

---

<sup>13</sup> Raymond W.G. The Poetics of Mind // Figurative Thought, Language and Understanding. – Amsterdam-Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1999. – 226 p.

milliy tilda “yaxshilik” konseptual maydonining markaziy va qurshov birliklari, ifodalovchilarning yaqin va uzoq periferik hududlari belgilangan;

“yaxshilik” konsepti haqidagi tasavvurlarning lingvomadaniy ifodasi sifatida maqollarga xos konseptual-metamorik (17 ta) va konseptual-metonimik (6 ta) modellar olam lisoniy manzarasi doirasida asoslangan va modellashtirilgan: konseptual-metamorik modellar ichida “Yaxshilik – bu mavjudlik” (1-asosiy model), “Yaxshilik – ne’mat”, “Yaxshilik – yengillik”, “Yaxshilik – yumush”, “Yaxshilik – ma’naviyat mahsuli” kabilar asosiy model bo‘lib, qolgan 12 ta model ularning, xususan, 1-modelning submodellari ekanligi isbotlangan;

badiiy matnda ijodkor ongi prizmasida aks etgan va muallifning badiiy olam manzarasi sifatida voqelangan “yaxshilik” konseptining kognitiv (19 ta) modellari aniqlangan: bu modellardan 3 tasi yaxshilik qiluvchi subyektlar (YQS) ga, 4 tasi yaxshilikni qabul qiluvchi subyektlar (YQQS) ga, qolgan 12 tasi til sohiblari (TS) ga tegishli ekanligi va bu modellar cheksizligi asoslangan;

oliygoch talabalari bilan va internet tamoqlarida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnomalar asosida o‘zbek tilida “yaxshilik” konseptining jamoaviy ongdagi assotsiativ maydoni belgilanib, uni tashkil etuvchi markaziy va chegara birliklari mohiyati yoritilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat: dissertatsiya materiallari kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, assotsiativ tilshunoslik fanlaridan tashkil etilgan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslangan;

filologiya yo‘nalishidagi tanlov fanlardan maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkin; tadqiqot natijalari asosida “yaxshilik” konseptining assotsiativ tadqiqi boshqa konseptlarning o‘rganilishida muhim manba bo‘lib xizmat qilishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi** “yaxshilik” konsepti bilan assotsiativ bog‘langan birliklarning maydon ko‘lamini izohlashda tilning leksik sath birliklari va ularning stilistik imkoniyatlariga tayanilgani, assotsiativ va ijtimoiy so‘rovnoma natijalari asosida ushbu konseptual tuzilma haqida ilmiy xulosalar chiqarilgani bilan belgilanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek tilida “yaxshilik” konsepti ifodalovchilari va ularning yadro-periferik munosabatlari hamda kognitiv tuzilma tarkibiy qismlarini modellashtirish masalasi bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlar rivojidadagi o‘rni bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dissertatsiya materiallaridan magistratura va bakalavriat bosqichlari uchun kognitiv lingvistika, assotsiativ tilshunoslik fanlari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarining yangi avlodini yaratish, ilmiy ma’ruzalar, maxsus kurs, seminarlarda foydalanish mumkinligida ko‘rinadi.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslariga tayangan holda olib chiqilayotgan muammo – o‘zbek tilida “yaxshilik” konseptining konseptual tuzilmalari va ularni tilda namoyon etuvchi birliklar hamda ushbu ifodalovchilar asosida shakllanuvchi konseptning kognitiv kontekstiga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan FI-G003 raqamli “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so‘z yasalishi” mavzusidagi

fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 25-maydagi 163/1-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha doirasida tayyorlangan materiallarning mazmuni boyitilgan;

“yaxshilik” konsepti haqidagi tasavvurlarning lingvomadaniy ifodasi sifatida maqollarga xos konseptual-metaforik va konseptual-metonimik modellar olam lisoniy manzarasi doirasida modellashtirilishi bilan bog'liq xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan FA-AI-G007 raqamli “Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 25-maydagi 162/1-son ma'lumotnomasi). Natijada maqollarni qo'llash hisobiga nutqning jozibadorligi va ta'sirchanligini oshirishga erishish mumkinligi, ularning barcha xalqlar va millatlarda bebaho qadriyat sifatida baholanishi, kognitiv tuzilmalar sifatida modellashtirilishi haqidagi qarashlar loyiha ishini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga xizmat qilgan;

badiiy matnda ijodkor ongi prizmasida aks etadigan, muallifning badiiy olam manzarasi sifatida voqelanadigan “yaxshilik” konsepti kognitiv modellarining rang-barangligi va cheksizligi haqidagi xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston” teleradiokanalida e'finga uzatilgan “Ta'lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon” nomli dasturlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 9-apreldagi 04-36-1316-son ma'lumotnomasi). Natijada 2022-2023-yillarda mazkur teleradiokanal materiallari ilmiy va amaliy jihatdan boyitilgan, mazmunan mukammallashuvi ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, xorijiy jurnallarda 6 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 137 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Kognitiv lingvistikaning nazariy asoslari**” deb nomlangan bo'lib, bobning birinchi fasli “*Til tadqiqiga kognitiv yondashuv*” masalasiga bag'ishlangan.

Bugungi kunda ko'pgina tadqiqotchilar til foydalanuvchisining ichki dunyosiga – lingvistik shaxsga murojaat qila boshladilar. Bu, umuman, lingvistik paradigmaning

o'zgarishiga olib keldi. Uning asosiy e'tibori hozirgi vaqtda til va nutq vositalari yordamida amalga oshiriladigan eng murakkab insoniy munosabatlar yig'indisiga qaratilmoqda. Tildagi inson omili g'oyasi, E.S.Kubryakovaning fikricha, "shaxsning lingvo-ijodiy faoliyati va uning idrok olamida yaratiladigan lisoniy manzara bilan uzviy bog'liq"<sup>14</sup>.

Hozirgi kunda tilga murojaat qilish inson ongiga kirishning eng oson usuli hisoblanadi, uni o'rganish ma'lum bir etnik guruhga xos bo'lgan olam manzarasining xususiyatlarini ochishga yordam beradi va til faoliyati bilishning o'ziga xos usullaridan biri sifatida aysberg uchini tashkil etuvchi kognitiv qobiliyatlarga asoslanadi<sup>15</sup>. "Tilning kognitiv funksiyasini uning barcha ko'rinishlarida o'rganish, idrokni uning lingvistik voqelantirishdagi tadqiqi deb tushunish kerak"<sup>16</sup>.

Kognitiv tilshunoslikda til hodisalarini antropotsentrik jihatdan o'rganish lingvistik shakllar ortidagi bilimlarni ifodalashning kognitiv tuzilmalarini aniqlash imkonini beradi, chunki kognitiv tadqiqotlar va ular asosida paydo bo'lgan ko'plab talqinlar<sup>17</sup> shuni ko'rsatadiki, "barchasining xilma-xilligiga qaramay, ularda umumiy jihat bor, ya'ni tilning antropotsentrikligi, aniqroq aytadigan bo'lsak, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita o'zlashtirilgan so'z bilan ifodalanadigan hamda tilga singdirilgan amaliy, nazariy, madaniy bilim va tajribalar semantik hamda konseptual tahlil natijasida til sohiblari tomonidan oxir-oqibat olamning lisoniy manzarasi shaklida qayta tiklanishi mumkin bo'lgan holatdir"<sup>18</sup>.

Tilni o'rganishga kognitiv yondashuvning mohiyati shundaki, ma'lum tajriba hamda bilim tashuvchisi sifatida shaxs tafakkuri konseptual tushuncha va uning lisoniy ifodalanishida katta rol o'ynaydi. Binobarin, "tilni o'rganish obyekt sifatida ko'rib chiqishning alohida istiqboli insonning bilish jarayonlari va nutq faoliyatidagi markaziy rolini tan olish bilan bog'liq"<sup>19</sup> va bu tilning antropotsentrik tabiatini anglatadi. Kognitiv yondashuv tadqiqot obyektini yaxlitlashtirish va leksik ma'nodagi tarkibiy qismlarni taqdim etish usullarini kengaytirishga imkon beradi. Leksik tizimda otlar bilan mustahkamlangan obyektlar va buyumlarning nomlarini tushuntiradigan konsept kognitiv lingvistikaning asosiy birligi hisoblanadi<sup>20</sup>.

Ma'lumki, har qanday tilda borliq o'ziga xos suvrat-u siyratda namoyon bo'ladi. Bu milliy nigoh, milliy his qilish, milliy eshitish omillari bilan bog'liq. Borliqning ongdagi manzarasini fotosurat tarzida emas, balki musavvir tomonidan ishlangan tasviriy san'at

---

<sup>14</sup> Кубрякова Е.С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики, 2004. – № 1 (001). – С.12-15.

<sup>15</sup> Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Издательство МГУ, 1987. – 36 с.

<sup>16</sup> Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики, 2004. – №1. – С.22-26.

<sup>17</sup> Rosh E. Prototype Classification and logical classification: The two systems / E.Rosh, B.Llood, B.Cognition. – Categorization: Hillside, 1978; Lakoff G. Women, Fire and Dangerous Things / G.Lakoff. – Chicago: University of Chicago Press, 1987; Johnson-Laird P.N. Mental models / P.N.Johnson-Laird. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983; Кубрякова Е.С. Краткий словарь когнитивных терминов / Е.С.Кубрякова, В.З.Демьянков, Ю.Г.Панкрац, Л.Г.Лазутина. – М., 1996.

<sup>18</sup> Рябцева Н.К. Ментальная лексика, когнитивная лингвистика и антропоцентричность языка / Н.К.Рябцева // <http://www.dialog-21.ru>.

<sup>19</sup> Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики, 2004. – №1. – С.18-36.

<sup>20</sup> Умарова Н. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дис. – Farg'ona, 2021. – Б.37.

namunasi sifatida tushunish lozim. Ushbu manzarada biror milliy tilga mansub shaxs yoki shaxslarning borliqni kuzatish asnosida olgan taassurotlari, o‘rganish yoki kuzatish yoxud tajriba natijasida egallagan bilimlari, bilish jarayonidagi holati va xususiyati o‘z aksini topadi. Bu o‘rinda aytish mumkinki, lingvokognitologiyaning muammosi til bag‘ridagi bilim, tasavvur strukturasi aniqlashdan iborat.

Shaxsning amaliy tajribasi va dunyoning tuzilishi haqidagi bilimlari hissiy a‘zolar va asosiy kognitiv tuzilmalar – inson idrokining invariantlari orqali amalga oshiriladi. Bilimlarni o‘rganish va ifodalash uchun turli xil bilim tuzilmalari – modellar, ssenariylar, rejalar qo‘llaniladi. Aniq matematik fanlar doirasida ishlab chiqilgan qolip, sxema, ssenariy kabi mavhum konstruksiyalardan lingvistik materialni chuqur tahlil qilish uchun keng foydalanish an‘anasi ilmiy tadqiqotlarda tobora aniq namoyon bo‘lmoqda. Binobarin, M.Minskiy modelni “stereotipik vaziyatni ifodalash uchun mo‘ljallangan ma‘lumotlar strukturasi”<sup>21</sup> sifatida belgilaydi.

Bobning ikkinchi fasli “*Til va tafakkur munosabatlari tavsifi*” deb nomlanadi va unda bu munosabatlar doirasidagi yondashuvlar tahlil qilinadi.

“Til paydo bo‘libdiki, necha ming yillardan beri odam bolasi sehr-u sinoatga to‘la bu xilqat oldida hayrat barmog‘ini tishlashdan tolmaydi. Tabiat va jamiyatdagi turfa hodisalarning mohiyati hamda qonuniyatlarini, ibtidoiy bir shamoyillarda bo‘lsa-da, bahaddi imkon inkishof etishga uringan ilk aql sohiblarining diqqatini til, xususan, ilohiy va badiiy so‘z tilsimi muammolari ham jiddiy band etgan. Bu yorug‘ diqqat-u shuur tetapoya davridan to bugungi yetuklik davriga kelguncha til mohiyatini aniqlashning ming bitta yo‘lini sinab ko‘rgan bo‘lsa-da, bu mohiyatga to‘la yetib borishning uddasidan chiqqa olganicha yo‘q. Chunki inson tili benihoya murakkab, benihoya ko‘p tomonlama, benihoya o‘ziga xos muhtasham va muntazam hodisadirki, uning barcha jihatlarini yaxlitligicha va birdaniga tasavvur qilishga ko‘pda inson aqli ojizlik qiladi”<sup>22</sup>.

Til muammosi, uning tafakkur shakllanishiga ta’siri, voqelikka munosabati asrlar davomida faylasuf va tilshunos olimlarning asarlarida turlicha talqin etilgan. Biroq hozirgi kunda tilni insoniyat madaniyatining hodisasi sifatida o‘rganishga kirishildi.

Gumboldt tilni “fikrni shakllantiruvchi a‘zo” sifatida tushundi va tilning tafakkurga bog‘liqligini, har biri til tomonidan o‘ziga xos shartlanishini ta’kidladi. Bu tilda so‘zlashuvchilarning dunyoqarashini belgilaydigan va dunyo haqidagi tasavvurlarini shakllantiradigan alohida milliy tasniflash tizimi mavjud. Gumboldt ta’limotiga ko‘ra, inson tilsiz rivojlana olmaydi, fikrlay olmaydi, dunyoni idrok etishda tilga butunlay bo‘ysunadi. Uning fikricha, til tabiat va inson o‘rtasidagi bog‘lovchi, “oraliq olam” bo‘lib, u kishilar hamda ularni o‘rab turgan dunyo o‘rtasida joylashgan. Aynan til insonga voqelikni, uning atrofidagi dunyoni bilishiga yordam beradi va til yordamida “olam manzarasi” yaratiladi<sup>23</sup>.

Rus tilshunosligida til va tafakkur munosabatlarining falsafiy va lingvistik muammosiga oid birinchi maxsus tadqiqot XIX asrning ikkinchi yarmida nashr etildi. Bu A.Potebnyaning V. fon Gumboldt g‘oyalari ta’sirida yozilgan “Tafakkur va til” asaridir. Tilshunos ushbu asarida til va fikrlash o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil qiladi. U asarida bir qator muhim g‘oyalarni ilgari suradi, jumladan, tilning tafakkurdagi roli:

<sup>21</sup> Минский М. Структура для представления знаний // Психология машинного зрения. – М., 1978. – 89 с.

<sup>22</sup> Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... // O‘zbek tili va adabiyoti, 2012. – №5. – B.9-13.

<sup>23</sup> Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 2000. – С.53-60.

Potebnya tilni inson fikrining ifodasi sifatida ko‘radi va til vositasida fikrlar, hissiyotlar va tajribalar ifodalanishini ta‘kidlaydi. Gumboldt g‘oyalarga ko‘ra, “til tafakkurni belgilaydi, atrofdagi dunyoni g‘oyalarga aylantiradi, ularni nutqqa ko‘chiradi. Tushunchalar obyektiv voqelikning aksi emas, ular ramziy bilishning mahsuli, ya‘ni belgilar bilan shartlangan bilimdir. Shu bilan birga, ular til ongining kognitiv qobiliyatlarini ham cheklaydi”<sup>24</sup>.

“Mening ongim chegaralari mening tilim bilan belgilanadi”, deb yozgan edi XX asrning eng yirik tilshunoslaridan biri Vitgenshteyn<sup>25</sup>. U o‘zining “Falsafiy asarlari”da olamni bilish mumkin, chunki til mantiqiy tuzilma sifatida olam tuzilishini o‘zining ma‘nosi bilan aks ettiradi<sup>26</sup>, deb ta‘kidlaydi. Uning “lisoniy olam manzarasi” haqidagi g‘oyasi barcha zamonaviy kognitiv tadqiqotlar asosida yotadi. “Til shunchaki shaxsiy bilish shakli emas, balki ijtimoiy bilish shakli hamdir... ijtimoiy til so‘zning denotativ ma‘nosida ushbu jamiyatning “olam manzarasi”ni qamrab oladi”<sup>27</sup>.

Bir qator tadqiqotchilar tildan tashqarida tafakkurning mavjudligi mumkin emas, degan fikrga qo‘shiladilar. “Fikrlar faqat so‘zlar asosida vujudga keladi: til nafaqat fikrlashning zaruriy sharti, balki fikrning zaruriy moddiy qobig‘i hamdir”, degan edi S.Rubinshteyn<sup>28</sup>. Xuddi shunday fikr E.Benvenistda ham uchraydi: “Til shakli ... fikrni uzatish sharti, lekin eng avval uni amalga oshirish shartidir. Biz til tomonidan allaqachon shakllangan fikrni tushunamiz. Tildan tashqarida faqat noaniq motivlar mavjud bo‘lib, ulardan imo-ishoralar va mimikalar paydo bo‘ladi. Shunday qilib, ... tilsiz fikrlash mumkinmi? – degan savol ma‘nisiz bo‘lib chiqadi”<sup>29</sup>. “Agar azaldan til fikrni ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda uning bilish jarayonida (tilning) faol rolini hisobga olgan holda, tilni tafakkurni bilish vositasi deb hisoblash istagi tobora kuchayib bormoqda”<sup>30</sup>.

I.A.Sternin “... til tizimi mavjud va u fikrlash jarayoniga emas, balki muloqot jarayoniga xizmat qiladi. Fikrlash uchun til birliklari umuman kerak emasligini, ular fikrlash uchun emas, balki uning natijalarini odamlarga yetkazish uchun kerak”<sup>31</sup> ekanligini ta‘kidlaydi.

Ong miya infratuzilmasining shunday tarkibiy qismiki, unda “barcha aqliy tajriba jamlanadi, inson hayoti davomida olam haqidagi bilimlarni o‘zlashtiradi, ya‘ni uning ongida to‘plangan taassurotlar, hislar, g‘oyalar va manzaralarni yoki konseptual tizim asosidagi tushunchalarni aks ettiradi”<sup>32</sup>. Bu o‘rinda E.S.Kubryakova lingvistik ongni lingvistik bog‘lanishga ega bo‘lgan “ma‘nolar yig‘indisi”, tafakkurni ongda sodir bo‘ladigan psixik jarayonlarning bir qismi va ayni vaqtda butun ongning bir qismi sifatida baholaydi<sup>33</sup>.

<sup>24</sup> Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 2000. – С.53-60.

<sup>25</sup> Витгенштейн Л. Философские работы. – М.: Гнозис, 1994. – С.148.

<sup>26</sup> Витгенштейн Л. Философские работы. – М.: Гнозис, 1994. – С.148.

<sup>27</sup> Радченко О.А. Язык как мирозидание. Лингвофилософская концепция неогумбольдтианства. Том 1. /О. А. Радченко. – М.: Метатекст, 1997. – С.249.

<sup>28</sup> Фесенко Т.А. Реальный мир и ментальная реальность: парадигмы взаимоотношений. – Тамбов: Наука, 1999. – С.75.

<sup>29</sup> Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Едиториал, 2002. – С.105.

<sup>30</sup> Юдахин А.П. Билингвизм и проблема связи языка и мышления (исторический аспект) // Теоретические проблемы социальной лингвистики. – М.: Наука, 1981. – С.236.

<sup>31</sup> Попова З. Д. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001. – 57 с.

<sup>32</sup> Кубрякова Е.С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики, 2004. – № 1 (001). – С.13-14.

<sup>33</sup> Кубрякова Е.С. Ko‘rsatilgan asar. – С.13-14.

Birinchi bobning 3-faslida *“Olamning konseptual va lingvistik manzaralari”* muammosi o‘rganilgan.

Shubhasiz, “lingvistik ong muammolarini olamning lisoniy manzarasi orqali tushunish, til va milliy madaniyatni bog‘lash va nutqni shaxs ongi tubida joylashgan kognitiv tuzilmalar nuqtayi nazaridan taqdim etish zarurati so‘nggi o‘n yillikda yangi paydo bo‘lgan kognitiv tilshunoslikda diskursiv paradigmaning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq”<sup>34</sup>. Shaxs bilish subyekti sifatida obyektiv voqelik haqidagi ma‘lum bilimlar, g‘oyalar, fikrlar tizimining tashuvchisi hisoblanadi. Bu tizim turli nomlarga ega: “olam manzarasi”, “olamning konseptual tizimi”, “olam modeli” va boshqalar.

“Olam manzarasi” tushunchasi asosiy tushunchalardan biri bo‘lib, inson va uning mavjudligini, mavjudligining eng muhim shartlarini, olam bilan munosabatlarini ifodalaydi. U yoki bu milliy jamoaga mansub kishilar ongida olam manzarasi, ya‘ni ularni o‘rab turgan obyektiv voqelik qiyofasi shakllanadi va avloddan avlodga o‘tadi. Olam manzarasi inson tomonidan yaratilgan obyektiv voqelikning subyektiv tasviri – olamning ko‘zgidagi tasviri, in‘ikosi emas, balki har doim uning qandaydir talqinidir. Olam manzarasini bir shaxsga nisbatan olamning individual g‘oyasi sifatida, shuningdek, butun insoniyatga nisbatan umumlashtirilgan g‘oya hamda olam haqidagi universal bilimlar majmui sifatida tushunish mumkin. Olam manzarasi insonning kognitiv faoliyati va fikrlash qobiliyati tufayli yaratiladi, shuning uchun u inson bilimlarini tashkil qilishni o‘rganadigan bir qator fanlarda kognitiv kategoriya sifatida tavsiflanadi.

Olamning yaxlit manzarasi dunyoqarashning ikkita asosiy turi – konseptual va lingvistik qarashlar asosida shakllanadi. Olamning konseptual manzarasi lingvistikaga qaraganda ancha kengroq, chunki uni yaratishda har xil fikrlash turlari, shu jumladan, nutqiy bo‘lmaganlari ham ishtirok etadi.

“Olamning konseptual manzarasi” tushunchasi tilshunoslikda olam manzarasi (B.A.Serebrennikov, E.A.Kubryakova)<sup>35</sup> deb nomlanadi. Tilshunoslik olam manzarasi va til o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatadi, kognitiv tuzilmani til orqali aniqlash usullarini o‘rganadi. Til nafaqat ongda taqdim etilgan semiotik tizimlardan biri sifatida olam manzarasining bir qismi, balki uning asosida olam lisoniy manzarasi ham shakllanadi. Nihoyat, til yordamida alohida shaxslar tomonidan olingan bilimlar subyektlararo mazmunga aylanib, kommunikativ jarayonlarda qatnasha oladi. An‘anaviy jihatdan til turli konseptual tizimlardan tashkil topgan yagona va universal tafakkur asosi (yagona mantiqiy va kognitiv asos) hisoblanadi.

Falsafada “olam manzarasi” muammosi falsafiy kategoriyalar: individual ong, dunyoqarash, tafakkur va boshqa kontekstlarda ko‘rib chiqiladi<sup>36</sup>.

“Olamning lisoniy manzarasi” tushunchasi “tafakkur – borliq – til” munosabatini aks ettiradi. Bu tushuncha til egalariga xos bo‘lgan olamni idrok etish tarzi, u haqidagi bilimlari, tasavvurlari, bahosining tilda aks etgan manzarasidir. Ijodkor asarida yaratilgan olam manzarasida uning bilimi, tasavvurlari, hissiyotlari, qarashlari, tashqi olamga munosabati jamlanadi. Bunday

---

<sup>34</sup> Кубрякова Е.С. Эволюция лингвистических идей во второй половине 20 века (опыт парадигмального анализа) / Е.С.Кубрякова // Язык и наука конца XX века. – М., 1995. – С.62-67.

<sup>35</sup> Серебренников Б.А. К проблеме “язык и мышление” (всегда ли мышление вербально?) // Сравнительное лингвистическое языкознание, 1977. – № 1. – С.16-17.

<sup>36</sup> Витгенштейн Л. Философские работы. – М.: Гнозис, 1994. –179 с.

olam manzarasi badiiy tabiatga ega bo'lganligi uchun u "olamning badiiy manzarasi" deb nomlanadi.

"Olam manzarasi" tafakkurda yaratiladi, tilda esa bunday qobiliyat yo'q. Tilning o'zini tafakkur bilan tenglashtirib bo'lmaganidek, "olamning lisoniy manzarasi"ni (OLM) "olam manzarasi" (OM) bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Xuddi shunday qarashni B.A.Serebrennikov ham ilgari suradi: "Til voqelikni aks ettirmaydi, balki uni ramziy ko'rinishda ko'rsatadi"<sup>37</sup>. Buning natijasi esa tushunchalar (ma'nolar) dir.

Shunday qilib, OLM tushunchasi o'zaro bog'langan, ammo turlicha ikkita g'oyani o'z ichiga oladi: 1) olamning til tomonidan taqdim etilgan manzarasi "ilmiy" manzaradan farq qiladi (shu ma'noda "olamning sodda manzarasi" atamasi ham qo'llaniladi); 2) har bir til o'z manzarasini "chizadi", voqelikni boshqa tillarga qaraganda biroz boshqacha tarzda tasvirlaydi. OLM atamasi tabiiy ravishda tilning so'zlovchilar tomonidan seziladigan, lingvistik ongda mustahkamlanadigan semantik tizimini anglatadi<sup>38</sup>.

"Olam manzarasi" atamasi ko'pincha "olamning konseptual manzarasi"ga sinonim sifatida qo'llaniladi. "Olam manzarasi" va "olamning lisoniy manzarasi" tushunchalari o'rtasida murakkab munosabatlar mavjud bo'lib, ularning chegaralari beqaror va noaniq deb belgilangan<sup>39</sup>.

Demak, "olam manzarasi" bilan "olamning lisoniy manzarasi" o'rtasida farqlar mavjud. "Olam manzarasi" – bu dunyoning inson ongida aks etishi. "Olamning lisoniy manzarasi" esa – dunyo haqidagi ma'lumotlarning til belgilari orqali qayta ishlanishi va qayd etilishi. Kengroq talqinda "mentalitet" tushunchasidan dunyo haqidagi ko'proq yoki kamroq barqaror g'oyalar to'plamini ifodalash uchun foydalaniladi. Shu ma'noda ko'pgina tadqiqotchilarning "mentalitet" va "olam manzarasi" tushunchalarini tenglashtirishlari kuzatiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"O'zbek tilida "yaxshilik" konseptining lingvo-aksiologik va assotsiativ xususiyatlari"** deb nomlanadi. Mazkur bobning birinchi faslida *konsept olam haqidagi axborot birligi sifatida* tavsiflanadi.

Kognitiv tilshunoslik vakillari har bir til ma'lum tushunchalar tizimiga ekvivalent bo'lib, ular orqali ona tilida so'zlashuvchilar tashqi dunyodan kelayotgan axborot oqimini idrok etadilar, tuzadilar, tasniflaydilar va izohlaydilar, deb hisoblaydilar.

"Ona tilida so'zlashuvchilarning barcha imkoniyatlari doirasida shakllanadigan tushunchalar – milliy tushunchalarning yig'indisi milliy konsept mazmunini tashkil qiladi"<sup>40</sup>. Shu nuqtayi nazardan konseptni tushuncha sohasining elementi, shaxsning kognitiv faoliyati jarayonining tarkibiy qismi sifatida, dunyo haqidagi ma'lumotlar birligi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Rus tilshunosligida "konsept" tushunchasi XIX asr oxirida asosiy atama maqomini oldi va shundan beri u haqida ko'plab ta'riflar paydo bo'ldi. Kognitiv atamalar lug'atida konseptga quyidagicha ta'rif beriladi: "Konsept bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarning inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir"<sup>41</sup>.

<sup>37</sup> Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. – М.: Наука, 1988. – С. 6.

<sup>38</sup> Урысон Е.В. Проблемы исследования языковой картины мира: Аналогия в семантике / Е.В.Урысон; Рос. академия наук. Ин-т русского языка им. В.В.Виноградова. – М.: Языки славянской культуры, 2003. – С. 56.

<sup>39</sup> Залевская А.А. Введение в психолингвистику. – М.: РГГУ, 2000. – 348 с.

<sup>40</sup> Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка. – М., 1993. – Т.52. – №1. – С. 5.

<sup>41</sup> Ray Jakendoff. What is a concept, that a person may grasp it // Program in Linguistics and Cognitive science Brandies University Watham, 1989. – 218 p.

“Konsept” termini zamonaviy tilshunoslikda biror bir leksik birlikning tafakkurdagi obrazini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Ilmiy talqinlarda bu termin “tushuncha” bilan sinonim sifatida qo‘llaniladi.

O‘zbek tilshunosligida ham “konsept” tushunchasi turli talqinlarga ega. Professor N.Mahmudov “Til tilsimi tadqiqi” risolasidagi “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida “... konsept tafakkurga oid mazmuniy-mental tushuncha, lekin uni milliy, madaniy unsurdan tamoman holi bo‘lgan hodisa sifatida qarash anchayin munozaralidir”<sup>42</sup> tarzidagi mulohazasini bayon etadi. Sh.Safarovning nuqtayi nazariga ko‘ra, “... konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz hamda lisoniy ma‘no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug‘ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo‘lishi bilan tugaydi”<sup>43</sup>.

Asosiy qatlam yoki konseptning o‘zagi odatda asosiy leksemalar bilan ifodalanadi. Konsept stilistik jihatdan betaraf va ancha faol leksemalar asosida shakllanadi. Uning uzoq chegarasidan stilistik rang-barang, past chastotali, shuningdek, eskirgan leksemalar o‘rin oladi.

Konsept hodisasining universal mohiyatini anglash mumkin bo‘lgan yagona ilmiy-uslubiy makon – bu semantika bo‘lib, u yerda konsept ham kognitiv konstruksiya, ham ma‘no yaratuvchi model sifatida ishlaydi, u o‘ziga xos ma‘nolar tizimida, ma‘lum bir konsepsiya doirasida amalga oshiriladi. Lingvistik konseptologiyada “konsept” deganda bir necha lisoniy ma‘nolar semantik jihatdan bog‘langan obyekt haqidagi lingvistik shaxsning madaniy jihatdan aniqlangan g‘oyalari majmui tushuniladi. “Konsept” konseptual maydonni, ya‘ni dominant tushuncha atrofida tizimlashtirilgan, qaysidir ma‘noda dominant tushunchaning o‘rnini bosuvchilar orqali shakllangan semantik makonni tashkil qiladi. Bunda assotsiativ eksperiment jarayonida olingan qabul qiluvchilarning nutqiy reaksiyalari strukturani tavsiflash va konsept modelini yaratish uchun ishonchli material bo‘la oladi.

Bobning *ikkinchi faslida* “yaxshilik” konseptiga xos baholash xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. “Olamning qiymat (baho) manzarasi” o‘zida jamiyat ideallari tizimini aks ettiradi va “olam lisoniy manzarasi”ning o‘ziga xos turini ifodalaydi. “Olamning qadriyat manzarasi”ni shakllantirishning asosiy omili – bu baholashdir. “*Olamning qiymat (baho) manzarasi*” “olam manzarasi” va “olamning lisoniy manzarasi” tushunchalari bilan bog‘liq.

“*Olamning qiymat manzarasi*” aksiologiyada o‘rganiladi. Aksiologiya – bu qadriyatlar nazariyasi demak. Qadriyatlar masalasi birinchi marta Suqrot tomonidan ko‘tarilgan va uni o‘z falsafasining markaziy nuqtasiga aylantirgan, uni “Nima yaxshi?” degan savol ko‘rinishida shakllantirgan. Yaxshilik amalga oshirilgan qiymat, ya‘ni foydalilikdir. Bunda qiymat va foydalilik bir tanganing ikki tomonidir. Platon konsepsiyasida yaxshilik borliq va go‘zallik bilan bir xildir. Qadriyatlar tabiatining yaxlit talqini Platondan tortib Gegel va Kryuchkovgacha amal qilgan. Shunga ko‘ra, aksiologiya borliq tushunchasi ikki elementga bo‘lingandagina paydo bo‘ladi: reallik va qiymatni amalga oshirish imkoniyati sifatida.

---

<sup>42</sup> Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017. – B. 60.

<sup>43</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.17.

*Yaxshilik* eng muhim fazilat sifatida inson faoliyatining asl va azaliy mohiyatini anglatadi. U insonga kuchli ruhiy lazzat bag‘ishlashi barobarida, uni shaxsga aylantiradigan haqiqiy baxtga olib boradi. Shuning uchun ham “ezgu (yaxshi) fikr”, “ezgu (yaxshi) so‘z”, “ezgu (yaxshi) amal” tushunchalari “Avesto”dan tortib barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o‘rin egallagan<sup>44</sup>. Yaxshilik insonning axloqiy va amaliy faoliyatida yuzaga chiqib, u kamtarlik, ochiqko‘ngillilik, mardlik, halollik, insoflilik, adolat, rostgo‘ylik kabi fazilatlarda mujassam bo‘ladi. Qur’onda “Agar chiroyli amallar qilsangizlar, o‘zlarinigizga yaxshilik qilgan bo‘lursizlar. Agar yomon, gunoh amallar qilsangizlar ham”<sup>45</sup>( o‘zlarinigizga zulm qilgan bo‘lursizlar).

Ota-onaga yaxshilik qilish haqidagi buyruq va farzlar Qur’oni Karim va payg‘ambarimiz (s.a.v.) ning hadisi shariflarida bayon qilib berilgan. Bu manbalarda shunday bir insonga yaxshilik qilishga targ‘ib qilinganki, bu yaxshilik evaziga jannat va‘da qilingan. Bu har bir mo‘minning ota-onasiga qilishi kerak bo‘lgan yaxshiligidir. Jumladan, “Ahqof” surasining 15-oyatida shunday deyiladi: “Insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. Onasi unga qiynalib homilador bo‘ldi va uni qiynalib tug‘di. Va uning homilasi va ko‘krakdan ajratishi o‘ttiz oydir”<sup>46</sup>.

Mustafo Zuhayliy o‘zining “Tafsiri Munir” nomli kitobida yuqoridagi oyati karimaning tafsirini shunday keltiradi: “Ona otadan 3 karra ziyoda qilindi. Chunki 3 ta ishda ona yolg‘iz bo‘lgan bo‘ladi: homilani ko‘tarish mashaqqatida, homilani dunyoga keltirish sinovida va tug‘ilgan bolani 2 yilgacha uyqusini buzib emizish muddatida ona yolg‘iz bo‘ladi”; Rasululloh (s.a.v.) dan so‘radilarki, “Kimga yaxshilik qilay, ey Rasululloh?” Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “Avval onangga, so‘ngra, otangga, keyin opa-singlingga, aka-ukangga. Va undan so‘ng qarindoshlaringga yaxshilik qilgin”. Ushbu hadisi sharifda avval ona, so‘ng ota va keyin opa-singil hamda aka-ukalar zikr qilingan<sup>47</sup>.

Biz “yaxshi”(lik) axloqiy baholash kategoriyasining xususiyatlarini o‘rganish uchun o‘zbek tili sohiblari jamoaviy ongidagi “yaxshilik” konseptual tuzilmasini bobning “O‘zbek tilida “yaxshilik” konseptining assotsiativ xususiyatlari” deb nomlangan 3-faslida tahlil qildik.

“Yaxshilik” konseptini milliy ongda “konseptuallashtirish” masalasini yoritishda eng avval “yaxshi” va “yaxshilik” tushunchalarining leksikografik talqinlariga to‘xtalib o‘tishimizga to‘g‘ri keladi. Lug‘atlarda bu tushunchalar izohi doirasida ba‘zi mulohazali o‘rinlar ham uchrab turadi, ya‘ni mazkur so‘zlar etimologiyasi bo‘yicha ma‘lumotlarni bir qator leksikografik manbalar<sup>48</sup>da uchratmadik. Shu o‘rinda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (O‘TIL, 5 jildlik) asosida *yaxshi* va *yaxshilik* so‘zlarining izohiga to‘xtalib o‘tamiz.

**Yaxshi** – I. Ijobiy sifatga ega bo‘lgan, biror talabga to‘la javob beradigan, kishiga yoqadigan, ma‘qul bo‘ladigan. *Yaxshi kishi. Yaxshi ot. Yaxshi baho. Yaxshi gap. Yaxshi g‘oya. Yaxshi tilaklar. Yaxshi yemoq. Yaxshi kiymoq. O‘zini yaxshi tutmoq. Yaxshi so‘z* –

<sup>44</sup> Колесов В.В. Жизнь происходит от слова. - СПб. – 1999. – С.104.

<sup>45</sup> Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Qur’oni Karim tarjimasini. – Toshkent: Muqaddima, 1992. – B.112.

<sup>46</sup> Shayx Muhmmad Sodik Muhammad Yusuf. QUR’ONI KARIM va o‘zbek tilidagi ma‘nolar tarjimasini. – Toshkent: HILOL-NASHR, 2017. – B.504.

<sup>47</sup> Mustafo Zuhayliy. Tafsiri Munir. – Toshkent: Xalq va moliya. – B.64.

<sup>48</sup> Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М.: НАУКА, 1974-1977; Древнетюркский словарь. Институт языкознания. – Л.: НАУКА, 1969; Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000.

*jon ozig'i, Yomon so'z – bosh qozig'i; Yaxshi oshini yer, yomon – boshini; Yaxshiga yondash, yomondan qoch; Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga, Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga* (Maqollar); *Yaxshining yuzida zuluk ham xol bo'lib ko'rinadi* (A.Qahhor, "To'yda aza"); *yaxshi ko'rmoq – 1) biror narsani, kishini yoqtirmoq, ma'qul ko'rmoq; 2) muhabbat qo'ymoq, sevmok. II mod. s. Rozilik, ma'qullash ma'nosini bildiradi; xo'p bo'ladi, durust, ma'qul.*

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da *yaxshilik* so'zining lug'aviy ma'nosi quyidagicha ifodalanadi<sup>49</sup>:

**Yaxshilik** – 1. Yaxshi xislat, xulq-atvor kabilarga egalik. *Hikoya alohida shaxslarning yaxshiligi yo yomonligi haqida, yo bo'lmasa, turmushdagi biror tasodif ustida yozilmaydi* (A.Qahhor, "Sarob"). 2. Ixtiyoriy ravishda biror kishining manfaatini ko'zlab ish tutish, biror manfaat yetkazish; mehribonlik; xayrli ish, ezgulik. *Yaxshilikning kechi yo'q* (Matal). *Yaxshi odamning yaxshiligi tegar tor yerda, Yomon odamning zarari tegar har yerda* (Maqol).

"O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati"<sup>50</sup>da konseptning asosiy yadro birligi bo'lgan *yaxshi* so'zining sinonimlari sifatida ***durust, tuzuk, tuppa-tuzuk, binoyi (bip-binoyi), soz, qoyilmaqom, joyida*** so'zlari keltirilib, ularning uslubiy xoslanishi haqida ma'lumot berilgan. Aytish mumkinki, bu sinonimik qatorda dominant so'zdan tortib, uning barcha ma'nodoshlari "yaxshilik" konseptual-semantik maydonining yadrosi (markazi) ni tashkil etadi.

**Yaxshi** – *durust, tuzuk, tuppa-tuzuk, binoyi (bip-binoyi), soz, qoyilmaqom, joyida* leksemalari "ijobiy xususiyatga ega bo'lgan, insonga xush keladigan, qo'llasa bo'ladigan" ma'nosiga ega. **Yaxshi** so'zi nutqda keng ma'noda ishlatiladi. Bu so'zning narsa-predmetga, insonga, harakatga nisbatan qo'llanishi uchraydi. **Durust, tuzuk, binoyi** so'zlarida **yaxshi** so'zidagiga nisbatan belgi darajasi kuchsiz. **Tuppa-tuzuk. bip-binoyi** so'zlarida belgi darajasining ortiqqligi, uning insonga xush keladigan darajada ekanligi e'tirof etiladi. Bu sinonimik doirada **soz** so'zi kitobiy uslubga xos. **Qoyilmaqom** so'zida belgiga nisbatan nutq egasining ijobiy munosabati bo'rtib turadi, ya'ni baholash xususiyatiga ega. **Tuzuk, binoyi, qoyilmaqom, joyida** so'zlari so'zlashuv uslubida ko'p ishlatiladi. **Joyida** so'zi ko'pincha sog'liq, ahvol so'zlari bilan bog'lanib, ularning yaxshi, me'yoriy holatda ekanligini anglatadi. Mazkur ma'noda oddiy so'zlashuvda bo'ladi so'zi ham ishlatiladi.

O'zbek tilida "yaxshi" konseptual tuzilmalari tarkibiga "jismonan va aqlan to'liq rivojlangan, kamolotga yetgan; mukammal (insonga nisbatan)" tushunchalarini ifoda etuvchi **yetuk, barkamol, raso, mukammal (1)** sinonimik qatori ham kiradi. Bu sinonimik qatorda **yetuk** so'zi keng ma'noga ega. **Barkamol** so'zi ko'proq badiiy va publitsistik uslubda ishlatiladi. **Raso** so'zi nutqda ko'pincha aql so'zi bilan ham bog'lanib keladi, belgi darajasi qabariq. Ushbu sinonim birliklarning keyingi ikkilamchi ma'nolari "talab jihatidan yuqori saviyadagi, mukammal darajadagi"<sup>51</sup>(2) tushunchasi bilan ifodalanadi. Bu ma'noni ifoda etishda **yetuk** so'zi eng ko'p ishlatiladigan leksik birlik

<sup>49</sup> ЎТИЛ. 5 жилдли. 5-жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2008. – Б.124-125.

<sup>50</sup> O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati / N.Mahmudov tahriri ostida. II. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.267.

<sup>51</sup> O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati / N.Mahmudov tahriri ostida. II. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.274-275.

sanaladi. *Yetuk, barkamol* soʻzlari bu maʼnosida mukammal darajadagi biror ijod namunasi boʻlgan sanʼat asarlariga nisbatan qoʻllanadi, yaʼni hamma tomonidan yaxshiligi birdek eʼtirof etiladigan, bir xil munosabat bildiriladigan narsa, voqelik, tushuncha va yana nimadir.

Ushbu sinonimik qatordagi soʻzlar maʼlum maʼnoda yaxshi tushunchasi bilan bogʻlanadi va buni *durust, tuzuk, tuppa-tuzuk, binoyi (bip-binoyi), soz, qoyilmaqom, joyida* soʻzlari izohi uchun sinonimlar lugʻatida keltirilgan har bir misolda *yaxshi* soʻzi ishtirokida koʻrish mumkin. Masalan: *Usmonali aka yer ilmini hammadan koʻra yaxshi biladigan aqli raso odamga oʻxshaydi.* (S.Ahmad, “Choʻl shamollari”)

Har qanday kontekstda *yaxshi* soʻzi aslida faqat modal, baholovchi birlik sifatida qoʻllanadi, yaʼni real yoki taxmin qilingan subyektning koʻrib chiqilayotgan obyektga ijobiy munosabatini ifodalaydi<sup>52</sup>. Kognitiv metodologiyaning afzalligi shundaki, u axloqiy ongda yaxshi narsaning obyektivligiga subyektiv ishonchni shakllantiradi.

Kognitiv tilshunoslikda asosiy kategoriya hisoblangan “freym” (kognitiv kontekst) tushunchasi, asosan, til va muloqot nazariyalarida qoʻllaniladi. Bu termin koʻpincha maʼlumotlarni qabul qilish va talqin qilish jarayonida kontekst yoki strukturaga teng keladi. Shuningdek, freym muloqotda maʼlum bir nuqtayi nazar yoki talqinni shakllantirishda muhim rol oʻynaydi.

*Freym* [ingl. frame – ramka; M.Minskiy termini] – birgalikda harakatlanadigan va bir-birini taqozo etadigan mantiqiy idrok elementlarining oʻzaro munosabati asosida yuzaga keladigan koʻp qismli va koʻp tabaqali kognitiv tuzilma; muayyan tushuncha atrofida uyushgan bilimlarning mazmun birligidir. “Freym – bu strukturaviy bilim birligi boʻlib, unda muayyan tarkibiy qismlar va ular oʻrtasidagi munosabatlar ajratiladi. Freym – tez-tez takrorlanib turuvchi maʼlum bir vaziyat hamda uning tuzilishi haqidagi bilim va fikrlarni uzatuvchi kognitiv model”<sup>53</sup> boʻlib, uning asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon boʻladi:

1. Kontekstualizatsiya. Freymlar tushunchalar yoki voqealarni maʼlum bir kontekstda koʻrishga yordam beradi. Masalan, biror predmet, shaxs, voqelik yoki hodisani ijobiy yoki salbiy nuqtayi nazardan talqin qilishga.

2. Til va muloqot. Freymlar til vositasida maʼlumotlarni qay tarzda taqdim etishimizni va qabul qilishimizni belgilaydi. Ular tilning semantik tuzilishini va ifoda usullarini shakllantiradi.

Tadqiqotimiz davomida oʻzbek tilida “yaxshilik” konsepti freymining konseptualizatsiyasi va kontekstualizatsiyasiga asoslanib 10 ta tasvirni aniqlashga muvaffaq boʻldik:

- |  |                                     |
|--|-------------------------------------|
| 1. Ona tasviri.                                      | 2. Insonlar tasviri.                |
| 3. Xulq-atvor va xarakter tasviri.                   | 4. Inson xatti-harakatlari tasviri. |
| 5. Insonning his-tuygʻulari bilan bogʻliq tasvirlar. | 6. Tabiat tasviri.                  |
| 7. Quyosh va yorugʻlik tasviri.                      | 8. Hayot quvonchlari tasviri.       |
| 9. Oddiy tasvirlar.                                  | 10. Ezgulik timsollari              |

<sup>52</sup> Максимов Л.В. О дефинициях добра: логико-методологический анализ // Логический анализ языка. Языки этики. – М.: Языки русской культуры, 2000. – С.7-17.

<sup>53</sup> Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati [Matn]: lugʻat / D.Xudoyberganova. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 112 B.

“Yaxshilik” konsepti freymining konseptualizatsiyasida o‘zbek milliy madaniyatining barcha subyektlari uchun “yaxshilik” konsepti oilaviy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq. Bunda dastlabki tasvir – ona timsoli o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar ongida “yaxshilik” konseptini kodlaydigan asosiy tasvir sifatida juda muhimdir. O‘zbek tili sohiblari tasavvurida bu holat qator tuzilmalar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi: ona – u farzandini suyadi, o‘pib-erkalaydi, doim farzandiga yaxshilik tilaydi va bolasini juda yaxshi ko‘radi, u uchun har narsaga tayyor zot; mehri daryo; turmush o‘rtog‘ini va bolalarini chin qalbdan, beminnat sevadigan eng yorqin siymo; ona milliy ongda farishta kabi tasavvur qilinadi (ayniqsa, kekxa onalar, aniqrog‘i, buvijonlar). Dissertatsiyada yuqorida qayd etilgan tasvirlar atroflicha tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning 3-bobi **“O‘zbek tilida “yaxshilik” konseptini maqollar va badiiy matnlar asosida modellashtirish, assotsiativ va ijtimoiy so‘rovnoma tahlili”** deb nomlangan. Bobning dastlabki faslida *“Maqollarda “yaxshilik” konseptini konseptual-metaforik va konseptual-metonimik asosda modellashtirish”* masalasi hal etilgan.

Birinchi kognitiv model – “yaxshilik” axloqiy konsepsiyasining konseptual-metaforik modeli, ya’ni o‘zbek maqollarida yaxshilik tushunchasi orqali ifodalanadigan (konkret shaxs, obyekt, predmet, narsa, borliq bilan bog‘liq) yaxshilikni ifodalash modeli. Bunday holda “yaxshilik”ka real shaxsning muayyan harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan obyekt sifatida qaraladi. Shu ma’noda yaxshilikni real voqelik sifatida ko‘rsatishning kognitiv modeli dunyoni konseptuallashtirish va tasniflashda insonlarning empirik tajribasidan olingan real narsalar (obyektlar) haqidagi bilimlardan foydalanishni aks ettiradi. Ushbu kognitiv model prizmasi orqali (har qanday yaxshilik qilishga qodir) “o‘ziga xos shaxslar” tushunchasi “yaxshilik” konseptiga muvofiq keladi. Buni quyidagi maqollar misolida ko‘rishimiz mumkin: *Daryoga yaxshilik qilsang, Ajrini biyobondan topasan; Birovning so‘zi yaxshi, Birovning – o‘zi; Dutorsiz baxshi bo‘lmas, Yomonsiz – yaxshi; Echkining yog‘i bo‘lmas, Yaxshining – dog‘i.*

Keyingi kognitiv model birinchi kognitiv modelga asoslangan asosiy darajadagi konseptual model hisoblanadi, ya’ni funksional jihatdan yaxshilikni ifodalash modeli (atributlar, xususiyatlar, belgilar vositasida). Bunday holda yaxshilik xazina yoki manba kabi qimmatbaho modda sifatida taqdim etiladi: *Yaxshining ishi – jannat...; Yaxshining gapi – moy...; Yaxshi uydin yaxshi tutun chiqar....*

Maqollarda yaxshilik muvaffaqiyat, baxt, foyda, zavq, qoniqish kabi tushunchalar bilan uyg‘unlashib ketadi. “Yaxshilik” konseptining kognitiv modellarini o‘rganish uchun unga muvofiq lingvistik materiallarni topish juda muhim sanaladi. Masalan, o‘zbek tilidagi *“Yaxshi – bog‘-u bo‘ston, Yomon – qora qozon”* maqolida yaxshilikning tunganmas moddiy ne‘matligi (bog‘-u rog‘ligi) ta’kidlanmoqda, uning binar oppozitsiyasida esa yomonlikning “qadrsiz, manfaatsiz, foydasiz, fayzsiz” metaforik ifodasi uchun *qora qozon* prototipi o‘rinli tanlangan. Bu bilan maqolda “Yaxshilik qilgan odam bog‘ kabi gullab-yashnaydi va hamma uchun manfaatlidir” degan implitsit mazmun ifoda etilmoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, mazkur maqol ikkinchi konseptual metaforani o‘rganish uchun periferik lingvistik material hisoblanadi. *Yaxshi bilan yursang, holva bilan bol...* maqolidagi metaforik talqinga ko‘ra, “muvaffaqiyat, foyda, baxt” va boshqa tushunchalar *holva* va *bol* shirinliklarining konnotativ ma’nosida ifoda etilmoqda, lekin ular axloq bilan bevosita bog‘liq emas.

Xullas, ishda o‘zbek tilidagi maqollarda “yaxshilik” konseptining ifodalanishi bilan bog‘liq 17 ta konseptual-metaforik modellar aniqlangan (Ilovada 1-jadval).

Metonimik modellarda “yaxshilik” tushunchasi uning tarkibiy qismlari orqali belgilanishi mumkin: yaxshi ish, yaxshi so‘z, yaxshi fazilat, yaxshi xarakter va boshqalar. *Yomon(odam)dan dog‘ qolar, yaxshi(odam)dan – bog‘(yaxshilik)*. Shunday qilib, maqollarda turli xil axloqiy tushunchalarni turkumlashtirish yoki konseptuallashtirishda milliy-madaniy belgilarning metaforik yoki metonimik ifodalari katta ahamiyatga ega.

Bobning *ikkinchi faslida* “yaxshilik” konsepti badiiy matn asosida modellashtirildi.

Ijodkor badiiy idrokida konsept doirasida yuzaga keladigan tasvirlar yuqoridagi tuzilmalardan farqlanishi mumkin, chunki bunda individual tasavvur, badiiy kreativlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, biz “yaxshilik” konseptini ijodkorning ushbu tushunchaga badiiy tafakkur nuqtayi nazaridan yondashuvi asosida tahlil qilishga harakat qildik. Misollar tahlili davomida konseptning milliy-madaniy ong darajasida tasavvur etilgan kodlari o‘zgarganligini aniqladik. Ishda dastlab O‘tkir Hoshimovning yaxshilik borasidagi konseptual talqinlari ko‘rib chiqildi. Masalan, quyidagi misolda avvalgi boblarda yaxshilik bilan bog‘liq tasavvurlar doirasida kuzatilmagan “Yaxshilikdan yomonlik izlashning jazosi – yomonlikdir” (yaxshilikdan shubhalanish, ya’ni u haqda yomon gumonda bo‘lishlik) modeli namoyon bo‘ldi: *“Boyagi odam yo‘lda ketayotib, Iso meni baribir aldadi, o‘rgatgan duosi yolg‘on, deb o‘ylabdi. Qarasa, yerda bir bo‘lak suyak yotganmish. Duo kuchini sinash uchun o‘qigan ekan, suyak bir zumda bahaybat sherga aylanibdi-da, uni parchalab tashlabdi... Yaxshilikdan yomonlik izlashning jazosi shu bo‘lsa kerak...”*<sup>54</sup>.

O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida “Suqrot savoli” deb nomlangan qatrada *yaxshilik* so‘zida kinoyaviy yo‘sinda “yomonlik” (xiyonat) tushunchasi, ya’ni **“Yaxshilikning kinoyasi – yomonlik”** modeli ifoda etilgan: *“Ulug‘ olim Suqrot ko‘chada ketayotsa, bir nomard orqasidan kelib, kuragiga pichoq uribdi. Suqrot xotirjam burilib qarab, so‘rabdi: Men senga qachon “yaxshilik” qiluvdim, birodar? Buyuk faylasuf savolida qanchalar iztirob borligini xiyonatga yo‘liqqan odam biladi!”*. Yozuvchining yaxshilik va yomonlik dualizmi haqidagi quyidagi fikrlaridan o‘z vaqtida qilinmagan har qanday yaxshilik, ya’ni kechikib qilingan yaxshilik aslida yomonlikka sababchi bo‘lishi mumkinligi haqidagi mazmunni anglash mumkin. Bu o‘rinda **“Kechikkan yaxshilik – yomonlik sababchisi”** konseptual modeli shakllanadi: *“O‘z fursatida qilinmagan yaxshilik yomonlikka yo‘l ochishi mumkin”*.

Yozuvchi O‘tkir Hoshimovning “Tebranma dunyo” qatrasida mehr yaxshilik, qahr esa yomonlik nishonasi ekanligi haqidagi tasavvur namoyon bo‘ladi: *“Mehr – yaxshilik, qahr esa yomonlik belgisi. Shunaqa-ku, mabodo teskarisi bo‘lsa-chi?”* Shunisi xarakterliki, bu qarash mutlaq haqiqat emas, chunki biz yaxshilik deb o‘ylagan narsa aslida yomonlik bo‘lishi ham mumkin. Ya’ni haddan ortiq mehr yomonlikka yo‘l ochishi mumkin-ku (masalan, bola tarbiyasida). Konseptual mazmunning bunday ziddiyatli holatiga matnning keyingi jumlasidagi *“Shunaqa-ku, mabodo teskarisi bo‘lsa-chi?”* so‘roq gapi ishora qiladi. Bu fikrni yozuvchi *“Ertasiga*

<sup>54</sup> Хошимов Ў. Дафтар ҳошиясидаги битиклар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 68 б.

*esa u boshqa odamni o'ldirdi... Sizning mehringiz yaxshilikka xizmat qildimi, yomonlikkani? Dunyoda soat kapgiridek tebranib turadigan haqiqatlar ham bo'ladi...*" tarzida davom ettirar ekan, yuqoridagi boblarimizda bayon etganimiz yaxshilik konseptual tuzilmalari orasida eng ko'p qayd etilgan va yaxshilik ifodasining muqobili bo'lgan *mehr, mehribonlik* tushunchalari konsept tushunchasiga zid holda hamma vaqt yaxshilikning natijasi kutilganidek bo'lavermasligi haqidagi fikr ilgari suriladi. Bu o'rinda konseptual model "**Yaxshilik – xizmatkor**" shaklida (ya'ni yaxshilikka ham, yomonlikka ham: bu o'rinda oqibat mutlaqo obyektiv xarakterda) bo'ladi. Ishda qayd etilgan kognitiv-konseptual modellar ilovada keltirilgan 4-jadvalda aks etgan.

Dissertatsiyada badiiy matnlar asosida aniqlangan kognitiv-konseptual modellar (KKMlar) quyidagilar: "Yaxshilikdan yomonlik izlashning jazosi yomonlikdir", "Yaxshilikning kinoyasi – yomonlik", "Kechikkan yaxshilik – yomonlik sababchisi", "Yaxshilik – xizmatkor", "Yaxshilik ta'madan holi", "Yaxshilik unutilmasligi shart", "Yaxshilikning qaytimi – yaxshilik yoki yomonlikdir", "Yaxshilik qilishga qodirlik", "Yaxshilikni qabul qiluvchining axloqsizligi – uyat", "Yaxshilik – nuqtayi nazar", "Yaxshilik – Alloh e'tiborida", "Yaxshilik – nafsdan", "Yaxshilik – yodgorlik", "Yaxshilikning e'tirofi – do'stlik", "Yaxshilikning qiyosiy qiymati", "Eng buyuk ikkita yaxshilik", "Yaxshilik – ne'mat", "Yaxshilik – ekin", "Yaxshilik – evaz" (Ilovada 2-jadval).

Xulosa qilib aytganda, "yaxshilik" milliy-madaniy konseptual tuzilmasida ijodkorlarning badiiy tasavvuridagi aqliy modellar xalq jonli tili timsoli bo'lgan maqollarning konseptual modellaridan birmuncha farq qiladi. Bu holat har bir ijodkor dunyoqarashi bilan bog'liq tarzda uning tasavvurida shakllangan yaxshilik konsepsiyasining kognitiv tasvirlari ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Uchinchi bobning *uchinchi fasli* "yaxshilik" konsepti doirasida o'tkazilgan assotsiativ va ijtimoiy so'rovnoma tahlillariga bag'ishlangan.

"Yaxshilik" konseptosferasi bo'yicha assotsiativ so'rovnoma Qo'qon DPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti BTSI yo'nalishi 01/20 va 02/20 guruh talabalari va Xorijiy tillar fakulteti ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi 03/23 va 04/22 guruh talabalari ishtirokida 1.05.24-5.05.2024 muddat oralig'ida o'tkazildi. So'rovnomada jami 100 nafar 21 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan talabalar ishtirok etdilar. Mazkur so'rovnoma matni 18 ta savol va topshiriqni o'z ichiga oladi.

Masalan, 1-savolga respondentlar tomonidan quyidagi reaksiyalar olindi: saxovat 9, mehr 30, muhabbat 5, ezgulik 10, sadoqat 7, yordam 25, yomonlik qilmaslik ham yaxshilik 1, rostgo'ylik 6, yaxshi so'z 2, yaxshilik ulashmoq 6, yaxshi amal 2, ehson 26, mehribonlik 12, g'amxo'rlik 6, hamdardlik 4, tabassum 32, yaxshi niyat 3, oqibat 12, kitob 7, pul 4, sevgi 6, savob amal 8, mardlik 3, kamtarlik 2, ochiqko'ngillik 9, halollik 4, insoflilik 2, adolat 6, shirin so'z 26, rahmdillilik 1, saxiylik 14, odobli bo'lish 2, vijdonlilik 2, mehnatkashlik 1, nafsni yenga olish 1, insonlarni xursand qilmoq 6, qo'l cho'zmoq 1, muruvvat 7, poklik 2, baxt 12, quvonch 4, ota-ona 18, e'tibor 11, sof qalblilik 7, ota-onani sevmok 1, kechirimlilik 3, pokizalik 1, to'g'ri niyatlik 2, to'g'rilik 8, gul 1, go'zal axloq 2, osmon 1, jazo (Yomonlikka qilingan yaxshilik ) 1, samimiylik 5, omad 4, bir so'zlilik 1, duo qilish 2, ilm olish 5, ozor bermaslik 3, silayi rahm 8, oqillik 1, g'iybat qilmaslik 1, hurmat qilmoq 7, qo'llab-quvvatlamok 2, tabiatni avaylash 2,

ko‘chat ekmoq 1, do‘stlik 6, suv 2, quyosh 2, taom 2, ishonch 3, oila 6, fidokorlik 1, hayot 1, sukut saqlamoq 1, farzand 2, xushmuomalalik 9, boylik 1, shukronalik 1, nasihat qilmoq 1, bag‘rikenglik 3, iymon 4, kuch 1, halovat 2, muloyimlik 1, sabrlilik 1, maslakdoshlik 1, sirdoshlik 2, havo 1, ezgu fikr, ezgu amal 1, tinchlik 1, bilim ulashish 2, muhtojlarga yordam 8, sadaqa 1, beg‘uborlik 1, moliyaviy va moddiy yordam 3, mehribon odamlar 1, islom dini 1, namoz 1, ibodat 1, insonlar og‘irini yengil qilmoq 1, tinchlik 1, ozodlik 2, mehrlil so‘zlar 1.

Jami: 506

Shuningdek, dissertatsiya mavzusi doirasida “GOOGLE FORMS” platformasida “yaxshilik” konseptosferasi kognitiv maydonining milliy ongndagi manzarasini aniqlash maqsadida ijtimoiy so‘rovnoma ham o‘tkazildi.

“Yaxshilik” konseptosferasi bo‘yicha internet tarmog‘ida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma maydoni “Google” platformasi bo‘lib, u onlayn-servis orqali test shaklida (20 ta) o‘tkazildi. Ushbu so‘rovnoma 10.04.24-5.05.2024 muddat oralig‘ida o‘tkazildi va respondent sifatida O‘zbekiston Respublikasining turli hududlarida yashovchi turli yoshdagi ishtirokchilar qatnashdi. So‘rovnomada jami 536 nafar 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan fuqarolar ishtirok etdilar. Ular orasida eng ko‘p ishtirokchi Farg‘ona viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi (So‘rovnoma natijalari 3-ilovada diagrammalar ko‘rinishida berilgan).

## XULOSA

1. “Yaxshilik” konsepti inson ongida olam haqidagi bilimlarni konseptual va xayoliy qayta ishlash darajasida qo‘llaniladigan murakkab, tez o‘zgaruvchan tuzilmadir. Umumjamoaviy tajribani o‘z ichiga olgan konseptual talqinlar yaxshilik haqidagi bilim va g‘oyalarni tizimlashtirishga va mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. “Yaxshilik” konsepti o‘z mazmuniga ko‘ra, olamni biluvchi va o‘zgartiruvchi subyekt faoliyatining in‘ikosidir. Yaxshilik inson faoliyatining shakllaridan biri, inson qadriyatlarini bilan bog‘liq mafkuraviy faoliyatdir. “Yaxshilik” tushunchasi insonning olamni idrok etishi va tushunishiga yordam beruvchi, uning hayotiy xatti-harakatlarini, e‘tiqodlarini boshqaruvchi eng muhim konseptual tuzilma sanaladi.

3. Ushbu tadqiqot natijalari “yaxshilik” konsepti doirasida til jamoasi madaniy ongida jamlangan bilim kvanti – kognitiv axborotning muayyan darajada lisoniy voqelanishini ko‘rsatdi (lekin u cheksiz va uning nihoyasiga yetish esa imkonsizdir). “Yaxshilik” konseptining mental xususiyatlarini ifodalovchi reaksiyalar shaxsning umumiy bilish tajribasi bilan bog‘liq bo‘lib, jamoaviy, shaxsiy va subyektiv tajribani tavsiflovchi assotsiatsiyalar bizning bevosita bilimimizni, ayni vaqtda, tashqi olam bilan o‘zaro munosabatimizni namoyon etadi.

4. “Yaxshilik”ka xos belgilar (stereotiplar) asosida konseptni kognitiv jihatdan lisoniy tavsiflash imkoniyati mavjud. Lingvistik birliklar konseptual maydon yadrosiga qanchalik yaqin joylashgan bo‘lsa, ular til sohiblari uchun shunchalik ahamiyatli bo‘ladi, chunki ular markazdan uzoqlashgan sari (chetki periferik qatlamlarda) konseptual belgilarning ahamiyati konsept doirasida susayib boradi.

5. Konseptual maydonning ma‘lum chegaralarida doimiy konseptual siljishlar kuzatiladi, kognitiv qatlamlarning aniq chegaralarini belgilash mushkul, chunki ular juda faol. Uzoq chegaraviy belgilar bunday semantik siljishlarga ko‘proq moyil bo‘ladi, yadro va yaqin chegaralar esa ancha barqaror bo‘ladi. “Yaxshilik” konseptining kognitiv

tuzilmalari harakatchanligini shaxs ongida ushbu jamiyatning allaqachon o'zlashtirilgan qadriyatlar bilan chambarchas holda shakllanadigan, uzluksiz ro'y beradigan "harakat" sifatida ta'riflashimiz mumkin va muayyan matnda "yaxshilik" konseptiga xos axborot hajmi kengayishining so'nggi nisbiy chegarasi bor, deb hisoblaymiz.

6. "Yaxshilik" konsepti nafaqat idrok etilayotgan voqelikni mavhumlashtirish va umumlashtirish jarayonlarida, balki hissiy tajriba ta'sirida ham shakllanadi. O'zbek tili sohiblarining konseptual tuzilmalari doirasida "yaxshilik" shaxs tomonidan o'zlashtirilgan bilim darajasi hajmidagi farqlarni ma'lum darajada namoyon etadi. O'tkazilgan so'rovnomalar natijalari asosida bu tushuncha mazmuni til jamoasining dunyoqarashi, jamoaviy munosabati va tashqi olam bilan faol aloqadagi asosiy g'oyalari bilan bog'liqligi ma'lum bo'ldi.

7. Boshqa konseptlar qatori "yaxshilik" konseptini o'rganishda ham leksikografik ma'lumotlardan va turli janrdagi badiiy matnlardan foydalanish yangi talqin va qarashlarni shakllantiradi. "Yaxshilik" konseptining maqollar va badiiy matnlar asosidagi modellarida o'xshash jihatlar kam ekanligi kuzatildi. Bu o'rinda maqollardagi kognitiv modellarning badiiy matn modellariga nisbatan umumiy va o'zgarmasligini ta'kidlash zarur.

8. Tadqiqotda yaxshilik haqidagi tasavvurlarning lingvomadaniy ifodasi sifatida maqollarga xos 17 ta konseptual-metaforik, 6 ta konseptual-metonimik modellar til jamoasining lisoniy va qadriyat olam manzarasi asosida modellashtirildi. Ular nisbiy bo'lib, har bir tadqiqot va yondashuvlar jarayonida yangi-yangi belgilar bilan boyib boradi. Bu bevosita til egasining konsept doirasidagi bilim zaxirasi va tasavvur olamiga bog'liq bo'ladi. Konseptual-metaforik modellar ichida "Yaxshilik – bu mavjudlik" modeli bosh model hisoblanadi, "Yaxshilik – ne'mat", "Yaxshilik – yengillik", "Yaxshilik – yumush", "Yaxshilik – ma'naviyat mahsuli" kabilar esa asosiy modellar, qolgan 12 ta model ularning, xususan, birinchi modelning submodellaridir.

9. Tadqiqotimiz materiallari doirasida badiiy matnda ijodkor ongi prizmasida aks etgan, muallif olam manzarasi sifatida badiiy jihatdan voqelangan axborotlar asosida "yaxshilik" konseptining 19 xil kognitiv-konseptual modellari aniqlandi. Aytish mumkinki, ushbu modellar cheksiz holda kengayish imkoniyatiga ega. Bu esa yozuvchining badiiy tasavvuri va tasvir yaratish mahoratiga bog'liq.

10. Ijtimoiy so'rovnomalar tahlili asosida aytish mumkinki, o'zbek tilida "yaxshilik" konseptining jamoaviy ongdagi assotsiativ maydon birliklari konsept mazmunini to'liq tavsiflashi ma'lum bo'ldi. Biroq bunday yondashuvda lingvistik shaxs ongidagi oddiy tushunchalar shaklida tuzilgan bilim chegaralarining nisbiyligi kuzatiladi. "Yaxshilik" konseptual tuzilmasining markaz va chegara birliklarini mukammal tavsiflash uchun til sohiblarining bu xususdagi talqinlari xilma-xil va to'laqonli emas, deb hisoblaymiz. Shunday bo'lsa-da, kichik lingvomadaniy jamoaning reaksiyalari asosida to'plangan til materiallarini milliy-madaniy jamoaviy ong nuqtayi nazaridan tahlil qilish orqali o'zbek tilida "yaxshilik" konseptining faol tuzilmalarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ldik. Milliy ongda yaxshilikning falsafiy asoslarida *ona, ota, farzand, quyosh, niyat, so'z, amal va xolis xizmat* tushunchalarining yetakchi ekanligini, diniy jihatdan esa *ona (eng muhim), ota, imon, ehson, kuchli e'tiqod, beminnatlikni* muhim belgi sifatida ko'rsatish mumkin.

**SCIENTIFIC COUNCIL ON AWARDING SCIENTIFIC  
DEGREE PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01  
AT KOKAND STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE**

---

**KOKAN STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE**

**YIGITALIYEVA SHOHSANAM ISAGALI KIZI**

**THE CONCEPT OF “GOODNESS” IN UZBEK LINGUISTIC REALIZATION**

**10.00.01 – Uzbek language**

**ABSTRACT**  
**of the doctor of philosophy (PhD) on philological sciences**

**Kokand – 2024**

The theme of PhD dissertation is registered by Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under the number B2021.3.PhD/Fil1924

The dissertation was completed at the Kokand State Pedagogical Institute.

The abstract of the PhD dissertation is posted in three in three (Uzbek, English, Russian (resume)) languages on the website of the Kokand State Pedagogical Institute ([www.kspi.uz](http://www.kspi.uz)) and on the website "Ziyonet" Information – educational portal ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))

Scientific advisor:

**Umarova Nargiza Rustamovna**  
Doctor of philological sciences, Associate professor

Official opponents:

**Xudoyberganova Durdona Sidikovna**  
Doctor of philological sciences, Associate professor  
**Azimov Inomjon Mamasodikovich**  
Doctor of philological sciences, dotsent

Leading organization:

**Namangan State University**

Defense of the Dissertation will take place on "14" December 2024, at 8:00 p.m. at a meeting of Scientific Council PhD.03 / 04.06.2021.Fil.132.01 under the Kokand State Pedagogical Institute. Address: 150700, Kokand city, Turon street, 23. Tel: (99873) 542-38-38; fax: (99873) 542-11-43; e-mail: [quqondpi@umail.uz](mailto:quqondpi@umail.uz)

Dissertation could be reviewed at information resource center of Kokand State Pedagogical Institute (registered under number 33) Address: 150700, Kokand, Turon street, 23. Tel: (99890) 508-64-42; e-mail: [qdpi\\_arm@umail.uz](mailto:qdpi_arm@umail.uz)

Dissertation abstract sent out on "4" December 2024.  
(Mailing report number 23 on "4" December 2024)



**M.Hakimov**  
Chairman of the Scientific Council  
awarding scientific degrees, Doctor of  
Philological Sciences, Professor  
**A.Turakhodjaeva**  
Secretary of the Scientific Council  
awarding scientific degrees, Candidate  
of Philological Sciences, Associate professor  
**D.Jamolitinova**  
Chairperson of the Scientific Seminar at  
the Scientific Council awarding scientific  
degrees, Doctor of Philological  
Sciences, Professor

## INTRODUCTION (Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation Annotation)

**The actuality and significant of the dissertation theme.** In world linguistics at the end of the 20th century, among other disciplines, attention was paid to the linguistic research of the human mind in the modern interpretation, cognitively oriented to the information system. It is known that information transmitted and received through language comes to a person through various channels, and knowledge about the whole universe is collected in the human brain in the form of certain conceptual structures. Only the research of each cognitive structure through language practice will give the expected result in the full determination of the stock of conceptual knowledge and imagination reflected in the national-cultural consciousness.

In world linguistics, the issue of studying language units within the framework of a specific concept and its conceptual structures is considered one of the most urgent problems today, because on the basis of a specific concept, it is possible to create mental models of the world scene reflected in the language in general, in particular, in the linguistic consciousness of native speakers. Today, in the cognitive approach, it is precisely the study of the “concept” that is given a wide place. From this point of view, it is necessary to describe the mental structures of the concept of “goodness” in the language based on associative and social questionnaire reactions according to age characteristics, to identify and analyze national perceptions within this concept, to define the core and peripheral units of the concept, and paremic units created on the basis of this semantic structure. and modeling of artistic texts has become one of the important issues of modern linguistics. After all, the study of effective means of expressing concepts in language is theoretically relevant in cognitive linguistics.

In Uzbek linguistics, in recent years, special attention has been paid to the study of the concept, which is the basic concept of linguocognitology, and a number of studies have been published in this direction. However, such conceptual research in cognitive linguistics has not completely solved all the problems in the field. It is known that “in today’s era of globalization, it is natural that every nation, every independent state attaches special importance to the issue of ensuring its national interests, in this regard, first of all, to the preservation and development of its culture, ancient values, and native language”<sup>55</sup>. In many languages, the concept of “goodness” is one of the important national-cultural concepts, and its research has been consistently carried out in linguistics. The concept of “goodness”, which is the essence of the world and the essence of life philosophy, and its national interpretation are manifested in various conceptual structures based on centuries-old experiences of the language community. Since time immemorial, the Uzbek people have raised goodness to the level of the most important national value, and our ancestors always praised goodness. The socio-political actions to glorify human interests and dignity carried out on the concept of goodness in our country also raise the importance of this concept research one step higher.

Decree number 5938 of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 18, 2020 “To improve the socio-spiritual environment in society, to further support the

---

<sup>55</sup> Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5850 "On measures to fundamentally increase the prestige and position of the Uzbek language as a state language". Source: <http://lex.uz/docs/4561730>.

neighborhood institute, and to raise the system of working with family and women to a new level on measures” and No. PF-6108 of November 6, 2020 “On measures to develop the fields of education, training and science in the new era of Uzbekistan's development” In the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-2909 of April 20, 2017 “On Measures for the Further Development of the Higher Education System”, No. PQ-3775 of June 5, 2018 “On Higher Education “On additional measures to improve the quality of education in educational institutions and ensure their active participation in comprehensive reforms implemented in the country”, No. PQ-4479 of October 4, 2019 Resolutions "On the wide celebration of the thirtieth anniversary of the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan “On the State Language”, Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis dated January 24, 2020 and other regulatory and legal this dissertation serves to a certain extent in the implementation of the tasks specified in the documents.

**The appropriateness of the research to the prior directions of the development of science and technologies.** This study was carried out in accordance with the priority direction of the republic's science and technology development “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state”.

**The scope of study of the problem.** In world linguistics, concepts are studied based on several approaches, in particular, cognitive linguistics examines concepts in connection with human mental processes <sup>56</sup>, semantic linguistics examines them as the meaning structure of language units <sup>57</sup>, structural linguistics examines them as a component of the language system, and linguoculturology examines cultural values and learns in relation to worldviews <sup>58</sup>. Each approach interprets concepts in its own way and reveals their different aspects, which shows the complex relationship and interaction of language and culture, the richness of conceptual structures.

In Russian linguistics, the concept of "concept" has been widely researched, in particular, Y. Stepanov <sup>59</sup> studied the functioning of concepts as a system of cultural codes and symbols, A. Zalyagin <sup>60</sup> studied their cultural and historical development, A. <sup>61</sup>Zaliznyak studied cognitive and cultural aspects, S. Askoldov studied <sup>62</sup>the concept and word interdependence and their place in the language system, <sup>63</sup>and I. Zayseva studied the lexical-semantic features and cultural connotations of the concepts.

---

<sup>56</sup> Langacker RW Foundations of Cognitive Grammar, vol. 1: Theoretical Prerequisites. – Stanford: Stanford University Press 1987; Langacker RW Concept, Image, Symbol // The Cognitive Basis of Grammar. – Berlin-New York: Mouton de Gruyter 1991; Langacker RW Cognitive Grammar // A Basic Introduction. - Oxford-New York: Oxford University Press, 2008.

<sup>57</sup>Wierzbicka A. Different Cultures, Different Languages, Different Speech Acts: Polish vs. English // Journal of Pragmatics 9 (2-3): 145-78. doi:10.1016/0378-2166(85)90023-2. 1995; Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German and Japanese. – New York: Oxford University Press, 1997.

<sup>58</sup>Ivanov VV Language and Culture // Language and Culture: Linguistic Studies. - M., 1990; Ivanov VV Linguistic and Cultural Contexts in Communication // Semiotics and Communication Studies. - M., 1985; Ivanov VV Cultural Concepts in Language Structure // Studies in Language and Culture. - New York, 1995.

<sup>59</sup>Stepanov Yu.S. Slovar Russian culture. - M.: Yazyki russkoy kultury, 1997. – 360 c.

<sup>60</sup>Zalygin A. Conceptual world of the Russian nation. - M., 2001. –107 c.

<sup>61</sup>Zalizniak A. Katalog semanticheskikh sdvigov: 20 let spustya // Language and culture: cognitive aspects. - M., 2004.

<sup>62</sup>Askoldov S. Concept i slovo. - M.: Russkaya rech, 1928-416 c.

<sup>63</sup>Zaitseva I. Conceptual analysis in contemporary Russian linguistics. - M, “KHOPYC”, 2003. – 76 c.

Within the framework of the study of the conceptosphere of the Uzbek language, a doctoral dissertation devoted to the linguistic-conceptual study of Alisher Navoi's works by NR Umarova in the diachronic aspect, "beauty" in classical artistic texts by Z. Marupova; in the comparative aspect, "courage" in Spanish and Uzbek by A.K. Khalillayev, "heart" in English and Uzbek by ZO Aminova, "mother" in English and Karakalpak by G.A. Usenova, "mother" by M.M. Rakhmatova in English, Uzbek and Tajik "beauty", "time" in the English and Uzbek languages of Sh.Kh.Djabbarov, "woman" concept of M.Bahramova and its verbalizers within the framework of language theory, O.Bektoshev's realization of language units with "power" element in the activation of conceptual information, U. Yigitaliyev's associative-verbal units related to the concepts of "man" and "gender" in Uzbek, D. Buzrukova's research <sup>64</sup>on the linguistic-cultural and gender analysis of the concept of "love" in the emotional-linguistic landscape of the world can be cited.

